



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV, MABLAG'LARNI JALB QILISH VA TAQSIMLASH MEXANIZMLARIDA NAZARIY YONDASHUVLAR

Xusainov Shavkat Abdushukurovich

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0006-4442-0834

shavkatxusainov7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor kompaniyaning moliyaviy resurslarini jalb qilish va ularni samarali taqsimlash mexanizmlarining nazariy jihatlariga qaratiladi. Jamiyat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilishda moliyaviy mablag'larni taqsimlashning muhim omillar ko'rib chiqiladi. Moliyaviy qarorlar qabul qilishda zamonaviy yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyati, moliyaviy boshqaruv, mablag'larni jalb qilish, taqsimlash mexanizmlari, korporativ boshqaruv, investitsiyaviy jozibadorlik, moliyaviy barqarorlik.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ФИНАНСОВОМУ УПРАВЛЕНИЮ, ПРИВЛЕЧЕНИЮ И РАСПРЕДЕЛЕНИЮ СРЕДСТВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Хусаинов Шавкат Абдушукурович

Университет цифровой экономики и агротехнологий

Аннотация. Данной статье анализируются теоретические основы финансового управления в акционерных обществах. Основное внимание уделяется теоретическим аспектам привлечения и эффективного распределения финансовых ресурсов компании. Рассматриваются важные факторы распределения финансовых средств в обеспечении финансовой стабильности общества, повышении его инвестиционной привлекательности и защите интересов акционеров. Анализируются современные подходы к принятию финансовых решений и их практическое значение.

Ключевые слова: акционерное общество, финансовое управление, привлечение средств, механизмы распределения, корпоративное управление, инвестиционная привлекательность, финансовая стабильность.

THEORETICAL APPROACHES TO FINANCIAL MANAGEMENT, FUNDRAISING, AND ALLOCATION MECHANISMS IN JOINT-STOCK COMPANIES

Khusanov Shavkat Abdushukurovich

University of Digital Economy and Agro-Technologies

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of financial management in joint-stock companies. The focus is on the theoretical aspects of attracting and effectively allocating financial resources. Important factors in financial allocation are examined in the context of ensuring financial stability, enhancing investment attractiveness, and protecting shareholders' interests. Modern approaches to financial decision-making and their practical significance are analyzed.

Keywords: joint-stock company, financial management, fundraising, allocation mechanisms, corporate governance, investment attractiveness, financial stability.

Kirish.

Bugungi kun global iqtisodiyotida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy tizimning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri bo'lib, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va aholini bandlik bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Dunyo bo'ylab eng yirik korporatsiyalar — Apple, Microsoft, Amazon va boshqalar aynan aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilgan.

Xalqaro moliyaviy ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda jahon bozorida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan taqdim etilgan umumiy aktivlar 120 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bundan tashqari, MSCI Global indeksleri ma'lumotlariga asoslanganda, dunyodagi eng yirik 2500 aksiyadorlik jamiyati dunyo yalpi ichki mahsulotining (YaIM) taxminan 50 foizini tashkil etadi.

O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy islohotlarning asosiy qismiga aylanib ulgurgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilning birinchi yarmida mamlakatda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari soni 650 taga yetgan, ularning umumiy aktivlari esa 200 trillion so'mni tashkil etgan. Shuningdek, bu jamiyatlar jami 50 mingdan ortiq aksiyadorning manfaatlarini himoya qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyati ularning moliyaviy boshqaruvi va mablag'larni jalb qilish hamda taqsimlash jarayonlarini oqilona tashkil etishga bog'liq. Shu jihatdan olganda moliyaviy boshqaruv, mablag'larni jalb qilish va taqsimlash mexanizmlari, shuningdek, ularning ahamiyati tahlil qilish muhim.

Aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy boshqaruv samarali faoliyatni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon jamiyatning moliyaviy manbalarini qanday rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy maqsadi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini saqlash, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy samaradorlikni maksimal darajada ta'minlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy boshqaruv konsepsiyalari bir qator ilmiy yondoshuvlarga asoslanadi. Quyida turli olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan asosiy nazariy qarashlarini keltirish mumkin. Klassik moliya nazariyasi (Traditional Theory). Klassik nazariyaga ko'ra, moliyaviy boshqaruv asosiy e'tiborni moliyaviy hisob-kitoblar, aktivlar va passivlarni boshqarishga qaratgan. Masalan, Fisherning (1930) "Tannarx va daromadni taqsimlash nazariyasi" bu yo'nalishning asosiy tayanchi bo'lib, moliya strategiyasi va qarorlar foyda maksimallashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Qimmatli qog'ozlar bozori nazariyasi (Capital Market Theory). Bu nazariya asoschilaridan biri Markovis (1952) bo'lib, uning portfel nazariyasi moliyaviy aktivlardan oqilona foydalanish va xatarlarni diversifikatsiya qilish orqali daromadni maksimallashtirishni taklif qiladi. G.Markovis moliyaviy boshqaruvni xatar va qaytishi o'rtasidagi muvozanatni topish jarayoni sifatida qaragan. Agentlik nazariyasi (Agency Theory). Jensen va Mekling (1976) ishlab chiqqan agentlik nazariyasi aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi munosabatlarni samarali boshqarishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifasi agentlik muammolarini hal qilish va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Qiymatga asoslangan nazariyasi (Value-Based Management). Repaport (1986) "Qiymat yaratish" konsepsiyasida moliyaviy boshqaruvning asosiy maqsadi qiymatni oshirish, ya'ni aksiyadorlar uchun moliyaviy qiymat yaratish ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar moliyaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanishni taklif etmoqda. Masalan, Lann (2018) moliyaviy tahlilda Big Data va ma'lumotlar modellaridan foydalanish orqali qaror qabul qilish sifatini oshirish imkoniyati haqida so'z yuritgan.

Markovisning (1959) «Efficient Portfolio Theory» va Sharpning (1964) «Capital Asset Pricing Model (CAPM)» moliyaviy sinergiya va diversifikatsiya modeliga oid nazariy yondoshuvlarida moliyaviy sinergiya va diversifikatsiya modellari keng yoritilgan. Ular portfel

menejmenti va aktivlar diversifikatsiyasining moliyaviy riski kamaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatgan.

Ingersoll (1987) va Breylining (2008) asarlarida budjetlash va prognozlash modeli moliyaviy prognozlashning ahamiyati va uning moliyaviy manbalarni samarali taqsimlashda qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Ular moliyaviy prognozlashni strategik rejalashtirishning asosiy qismlaridan biri sifatida ta'riflagan.

Tadqiqotlarda kapitalni budjetlashtirish (Capital Budgeting) investitsiya strategiyasining tartibga solishi qayd etiladi. Bu nazariy yondashuv moliyaviy manbalarni rejalashtirishda, har bir loyiha uchun bir martalik sarmoya mablag'larini o'rganish va ularning qaytarishini baholashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu yo'nalishda murakkab usullar, masalan, «Net Present Value» (NPV) va «Internal Rate of Return» (IRR) nazariy yondoshuvlari qo'llaniladi. Bu usullar kompaniyaga moliyaviy manbalarni samarali taqsimlash va oldindan baholash imkonini beradi. Mazkur model Miller (2016) va Modiganning (2019) asarlarida investitsiya qilish usullari, ayniqsa, Net Present Value (NPV) va Internal Rate of Return (IRR) nazariy asoslari aniqlangan. Ular bu usullarni iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda qo'llashning moliyaviy samaradorligiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ushbu modellar va nazariy yondashuvlarning barchasi moliyaviy boshqaruv va strategik moliyalashtirish sohasidagi tadqiqot olib borgan bir qator iqtisodchi olimlar asarlarida ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, har bir nazariy yondashuv moliyaviy manbalarni samarali taqsimlash, resurslarni maksimal darajada ishlatish va kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Abduraxmonov (2020a; 2020b; 2020c; 2022a; 2022b; 2022c; 2023; 2024a; 2024b; 2024c; 2024d; 2024e) o'z tadqiqotlarida aksionerlik kompaniyalari bo'lgan sug'urta kompaniyalarining mavzu oid jihatlarini keng yoritib berishga harakat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, umumlashtirish, kompleks baholash, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirish – bu kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, yangi texnologiyalar joriy qilish va mahsulot sifatiga e'tibor qaratishga qaratilgan muhim qarorlar va sarmoyalarni taqsimlash jarayonidir. Bunday moliyalashtirish kompaniyalar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, raqobatbardoshlikni oshirish, bozordagi pozitsiyani mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirish maqsadida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash orqali kompaniyalar ko'pincha yangi bozorlarga kirishish, mijozlar uchun innovatsion va yuqori sifatli mahsulotlarni taklif qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirish, ayniqsa, yangi texnologiyalar va innovativ yechimlarni joriy qilishda muhim ahamiyatga ega. Yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish uskunalari ko'pincha yuqori moliyaviy sarmoyani talab qiladi, lekin bu sarmoyalar qaytarishda o'z samarasini ko'rsatadi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik rivojlanish kompaniyaning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning bozordagi raqobatga qodirligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishda muhim omillardan biri - bu kompaniyaning strategik maqsadlariga muvofiq sarmoyalarni taqsimlash, shu jumladan, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki tizimlar modernizatsiyasini amalga oshirish. Ishlab chiqarishni moliyalashtirish bilan bog'liq sarmoyalar, shuningdek, yangilangan infratuzilma va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, moliyalashtirish jarayonidagi muammolar, masalan, moliyaviy manbalarning yetishmasligi yoki noto'g'ri sarmoya taqsimlash, ishlab chiqarishning past samaradorligiga olib kelishi mumkin. Bu holat kompaniyaning moliyaviy holatini yomonlashtirishi va o'z raqobatdoshligini yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishda hisob-kitob, tahlil va strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishda qo'llanilayotgan texnologiyalar, avtomatizatsiya, innovatsiya va boshqa zamonaviy yondashuvlar kompaniyalarning ishlab chiqarishni samarali tashkil etishga yordam bermoqda. Bu, o'z navbatida, mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Moliyalashtirish jarayonidagi to'g'ri qarorlar, shirkatlarning uzoq muddatli rivojlanishi va raqobatdagi ustunligini ta'minlaydi.

Bu maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqarishni moliyalashtirish jarayonida strategik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish, moliyaviy tahlil va marketing to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish zarur bo'ladi. Bundan tashqari, kompaniyalar o'zlarining moliyaviy manbalarini ijaraga olish yoki kreditlar orqali moliyalashtirishni tanlashlari ham mumkin, bu ularga zarur sarmoyalarni olish imkonini beradi.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlari moliyasida ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan mablag'larning ahamiyati alohida o'rin tutadi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun moliyaviy resurslarni ajratish aksiyadorlik jamiyatlarining uzluksiz rivojlanishi va bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim yo'nalishidir (Kravchenko, 2019). Jumladan:

- ishlab chiqarish hajmini oshirish moliyaviy manbalarni yangi texnologiyalar joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va resurslarni samarali boshqarishga sarflashni talab qiladi. Bu kompaniyaga bozor talablarini qondirish, daromadlarni oshirish va masshtab iqtisodiyotidan foydalanish imkonini beradi.

- mahsulot sifatini yaxshilash esa moliyani zamonaviy sifat nazorati tizimlari, ilg'or tadqiqot va ishlanmalar, hamda xodimlarning malakasini oshirishga yo'naltirishni talab qiladi. Bu iste'molchilarning ishonchini qozonish, brend qadrini oshirish va bozorda ustunlikka erishishda muhim rol o'ynaydi.

Umumiy holda, mazkur sarmoyalar kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, raqobatbardoshligi va aksiyadorlar uchun qiymatni oshirishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish hajmini oshirishga yo'naltirilgan mablag'lar ishlab chiqarish hajmini oshirishning juda muhim o'rin tutadi. Masalan, Harvard Business Review (2018) tadqiqotlari ko'rsatishicha, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalashtirish va avtomatizatsiyalashtirish kompaniyalarga 20%gacha samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga olib keladi.

1. **Texnologik yangilanish va modernizatsiya.** Qo'llanilgan ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. McKinsey va Company (2019) hisobotida qayd etilishicha, ishlab chiqarishni avtomatizatsiyalashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligi 30%gacha oshishi mumkin.

2. **Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish.** Yangi ishlab chiqarish liniyalari va yoki sexlar qurish moliyaviy manbalarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Statistik ma'lumotlar (OECD, 2020) ko'rsatishicha, ishlab chiqarishning hajmini oshirish uchun kompaniyalar sarmoyalarning 15-20%ini yangi liniyalar qurishga sarflaydilar.

3. **Tashkiliy rivojlanish.** Korporativ struktura va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish kompaniyaning umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ekspertlar buni ishlab chiqarish faoliyatida raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri deb biladilar (Porter, 1990).

Mahsulot sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan mablag'lar mahsulot sifatiga, xususan kompaniyalar uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Mahsulot sifatiga oid olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mahsulot sifatini yaxshilash kompaniyalarning 80%gacha mijozlar bilan mustahkam munosabatlar o'rnatishga yordam beradi.

1. **Sifatni nazorat qilish.** 2018 yildagi statistikaga ko'ra (The Quality Assurance Institute), sifati yuqori bo'lgan mahsulotlar uchun sarmoyalarning 12%i sifati nazoratiga yo'naltiriladi. Bu, o'z navbatida, mahsulot sifatini yaxshilash va xatolarni kamaytirishga olib keladi.

2. **Yangi materiallar va komponentlar.** Yangi materiallar ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. "ScienceDirect" (2020) tadqiqotiga ko'ra, yangi materiallar joriy qilingan kompaniyalarda ishlab chiqarishdagi xato stavkasi 25%ga kamaygan.

3. **Xodimlar malakasi va tayyorgarligi.** Xodimlar malakasini oshirish kompaniyaning ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga, shuningdek, sifati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarishga olib keladi. Harvard Business School (2017) hisobotida aytilishicha, yaxshi o'qitilgan va malakali kadrlar ishlab chiqarish jarayonlarini 40%ga tezlashtiradi va sifatni 20%ga oshiradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishda sarmoyalarning samarali taqsimlanishi kompaniyaning ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon moliyaviy manbalarning aniq va maqsadli yo'naltirilishi, shuningdek, innovatsion va samarali ishlab chiqarish mexanizmlarining joriy qilinishi bilan bog'liqdir. Statistika va olimlarning fikrlariga ko'ra, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, sifat nazoratini tashkil etish va xodimlarning malakasini oshirish kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishga va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishni to'g'ri yo'lga qo'ygan kompaniyalar bozordagi o'rnini mustahkamlashga, samarali ishlab chiqarishni tashkil qilishga va mijozlar bilan uzluksiz munosabatlar o'rnatishga erishdilar. Bunday qarorlar kompaniyalar uchun ne faqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarni, balki uzoq muddatli rivojlanishni ham ta'minlaydi. Ushbu jarayonlar iqtisodiy va ijtimoiy samaralarning yuqori darajasini erishishga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarishning barqarorligini va effektivligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ishlab chiqarishni moliyalashtirishdagi samarali yondashuvlar kompaniyalar uchun na faqat moliyaviy manbalarni optimal taqsimlashni, balki bozordagi raqobatga qodirlikni, ijobiy ijtimoiy ta'sirni va umumiy rivojlanishni ta'minlaydi. Strategik rejalashtirish va aniq sarmoyalash qarorlari, shubhasiz, ishlab chiqarishni sifatli, samarali va tez rivojlantirishga olib keladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy manbalarni taqsimlash jarayoni jamiyatning moliyaviy barqarorligini, strategik maqsadlariga erishishini va manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Mablag'larni samarali taqsimlash mexanizmlari aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy faoliyatining barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanishini kafolatlash uchun muhimdir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy manbalarni taqsimlash ko'p jihatdan kompaniyaning strategik maqsadlariga, bozordagi o'rniga va iqtisodiy vaziyatga bog'liq. Bu jarayon jamiyatning ichki hamda tashqi manbaalaridan moliyaviy resurslar yig'ish va ularni oqilona taqsimlashni o'z ichiga oladi. Mablag'larni taqsimlash jarayonida kompaniyaning kamida bir necha asosiy maqsadi mavjud: mahsulotlar va xizmatlar sifati, ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish, raqobatdoshlikni mustahkamlash va dividendlar to'lash orqali aksiyadorlarga qiymat yaratish.

Mablag'larni taqsimlashning muhim omillari kompaniyaning moliyaviy barqarorligini va rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Strategik maqsadlar va loyihalar, jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishiga erishish uchun zarur bo'lgan sarmoyalarni taqsimlashda asosiy

yo'nalishlar belgilashni talab qiladi. Aksiyadorlar manfaatlariga e'tibor qaratish orqali ularga dividendlarni vaqtli to'lash va kompaniyaning moliyaviy ishonchini oshirish mumkin. Moliyaviy tahlil va nazariy asoslar esa resurslarni samarali taqsimlashda to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun muhimdir. Shuningdek, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirish jarayoni kompaniyaning barqarorligini saqlash va mo'ljallangan natijalarga erishishga yordam beradi. Raqobat muhitiga mos kelgan moliyaviy strategiyalar bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga va jamiyatning barqaror o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1-jadval

Moliyaviy mablag'larni taqsimlashning muhim omillari (Ahmadov, 2020)

Omilar	Tavsif
Strategik maqsadlar va loyihalar	Jamiyatning rivojlanish yo'nalishlariga erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy sarmoyalar aniqlanadi. Kompaniya o'zining strategik maqsadlariga asosan sarmoyani ishlab chiqarish, marketing va tadqiqot-tashqiqot ishlariga yo'naltiradi. Mablag'larning katta qismi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsiyalarni joriy qilish va texnik vositalarni modernizatsiya qilishga sarflanadi.
Aksiyadorlar manfaatleri	Aksiyadorlarga dividendlarni vaqtida va ishonchli to'lash orqali ularning qiymatini oshirishga e'tibor qaratilishi kerak. Mablag'larning belgilangan qismi aksiyadorlar uchun dividend sifatida taqsimlanishi, shundan kelib chiqqan holda, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini va ishonchini oshiradi.
Moliyaviy tahlil va nazariy asoslar	Mablag'larni taqsimlashda kompaniya o'z moliyaviy holatini chuqur tahlil qilishi kerak. Bunda likvidlik, rentabellik, kapital strukturasi va qarz yuklarining o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Majburiyatlar va zaxiralar o'rtasidagi optimal muvozanatni topish muhimdir.
Maksimum iqtisodiy samaradorlik	Mablag'larni taqsimlash jarayoni har qanday jamiyat uchun yuqori iqtisodiy samarani ta'minlashga qaratilgan. Buning uchun, ma'lumotlar, statistika va prognozlarni hisobga olish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin.
Moliyaviy xavflarni kamaytirish	Mablag'larni taqsimlash jarayonida xavflarni aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rish zarur. Bunda xatarlarni diversifikatsiya qilish, muammoli aktivlarni ayirish va hududlar bo'yicha investitsiyalar taqsimlash muhimdir.
Raqobat muhiti	Mablag'larni taqsimlash jarayoni jamiyatning raqobat muhitiga va bozor talablariga mos bo'lishi kerak. Aksiyadorlik jamiyatlari o'z bozordagi o'rnini mustahkamlash uchun moliyaviy manbalarini samarali taqsimlash orqali raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqda.

Mablag'larni taqsimlashning muhim omillari kompaniyaning moliyaviy barqarorligini va rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Strategik maqsadlar va loyihalar, jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishiga erishish uchun zarur bo'lgan sarmoyalarni taqsimlashda asosiy yo'nalishlar belgilashni talab qiladi. Aksiyadorlar manfaatlariga e'tibor qaratish orqali ularga dividendlarni vaqtli to'lash va kompaniyaning moliyaviy ishonchini oshirish mumkin. Moliyaviy tahlil va nazariy asoslar esa resurslarni samarali taqsimlashda to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun muhimdir. Shuningdek, yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirish jarayoni kompaniyaning barqarorligini saqlash va mo'ljallangan natijalarga erishishga yordam beradi. Raqobat muhitiga mos kelgan moliyaviy strategiyalar bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga va jamiyatning barqaror o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, moliyaviy manbalarni rejalashtirish jarayoni kompaniyaning strategik maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy rejalashtirish jamiyatning bo'lajak faoliyatini belgilashga yordam beradi va moliyaviy manbalarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, moliyaviy manbalarni rejalashtirishga oid nazariy qarashlar turli modellar orqali ifodalanadi va bu ishlanmalar kompaniyaning moliyaviy holatini va ehtiyojlarini ko'rib chiqishga yo'naltirilgan.

Xulosa va takliflar.

Moliyaviy boshqaruv aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini aniq rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilish orqali samarali va barqaror moliyaviy muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kompaniyalar moliyaviy resurslarni samarali boshqarish orqali na faqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki uzoq muddatli rivojlanishni ham kafolatlaydi. Moliyaviy boshqaruvning samaradorligi aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, kompaniyaning umumiy maqsadlariga erishishga yordam beradi.

O'zbekiston uchun aksiyadorlik jamiyatlari moliyasining asosiy funksiyalarini tahlil qilishdan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish zarur, bu esa zamonaviy moliyaviy vositalardan samarali foydalanish, xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni joriy etish va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ikkinchidan, moliyaviy bozorlarni rivojlantirish orqali mablag'larni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu aksiyadorlik jamiyatlariga xalqaro moliya bozorlariga chiqish, chet el investitsiyasini jalb qilish va davlat-hususiy sheriklik loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, dividendlar va boshqa moliyaviy resurslarni taqsimlashda adolatli mexanizmlarni joriy etish orqali aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, investitsion muhitni yaxshilash lozim. Bundan tashqari, ichki nazorat tizimini mustahkamlash va moliyaviy xavflarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlarining barqarorligini ta'minlaydi. Hamda jamiyatning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, ya'ni ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va aholi farovonligini yaxshilash bo'yicha faoliyatni rivojlantirish ham dolzarbdir.

Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruvini samarali amalga oshirish va umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

Abdurakhmonov I. (2020c). *Impact of insurance services on the development of real sector enterprises. International Finance and Accounting*, (6), 7.

Abdurakhmonov, I. (2020a) "Regulation of the insurance market and implementation of effective mechanisms of prudential control," *International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 2, Article 10*. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss2/10>

Abdurakhmonov, I. (2020b). *Methods and approaches to evaluating the insurance industry efficiency. International Finance and Accounting*, (3), 7.

Abduraxmonov И.Х. (2022с) Суғурта соҳасида янги рақобат кўринишлари: назарий асос ва иқтисодий таҳлил. "Moliya va bank ishi" илмий журнал. №2, 145-150 б.

Abduraxmonov, I. (2022b). *Sug'urta sohalarining shakllanish tendensiyalari. MOLIYA VA BANK ISHI*, 8(3), 60-67.

Abduraxmonov, I. (2022a). *Суғурта соҳасида рақамли технологияларни қўллаш истиқболлари. MOLIYA VA BANK ISHI*, 8(1), 95-99. Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/82>.

Abduraxmonov, I. (2024a). *Суғурта бозори: замонавий ҳолат ва ривожланиш тенденциялари. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(4), 309-319.

- Abduraxmonov, I. (2024c). Суғурта соҳасини ривожлантириш истиқболлари. *Nashrlar*, 2(D), 12–15. <https://doi.org/10.60078/2024-vol2-issD-pp12-15>.
- Abduraxmonov, I. (2024d). Такафул: назарий-иқтисодий асослар ва амалга ошириш механизмлари. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(6), 298–307. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss6-pp298-307>.
- Abduraxmonov, I. (2024e). Рақамли иқтисодиётнинг биз билмаган рисклари. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(7), 230–239. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss7-pp230-239>.
- Abduraxmonov, I. X. (2023). Ўзбекистон Республикасида sug'urta тармоқларини ривожлантиришнинг концептуал асослари. Автореферат дисс... и. ф. д, 78.
- Abduraxmonov, I.X. (2024b). Суғурта соҳасининг самарадорлигини баҳолаш. *TADQIQOTLAR. UZ*, 37(6), 161-167.
- Ahmadov, A. (2020). *Korporativ moliya va qarz siyosati*. Toshkent: Akademiya nashri.
- Brealey A.R. (2008) *Principles of Corporate Finance*, McGraw-Hill.
- Fisher, I. (1930). *The Theory of Interest*. New York: Macmillan.
- Harvard Business Review, (2018), "The Impact of Technology on Manufacturing Performance" (<https://hbr.org>).
- Harvard Business School, (2017), "The Role of Skilled Workforce in Manufacturing Efficiency" (<https://www.hbs.edu>)
- Ingersoll E.J. (1987). *Theory of Financial Decision Making*. Rowman & Littlefield.
- Jensen, M., & Mecling, W. (1976). *Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs, and Ownership Structure*. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305-360.
- Lann, R. (2018). *Big Data and Financial Analysis: The Role of Artificial Intelligence in Finance*. *Journal of Financial Technology*, 2(1), 15-23.
- Markovitz, H. (1952). *Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments*. *Journal of Finance*, 7(1), 77-91.
- Markovitz, H. (1959). *Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments*. John Wiley & Sons.
- McKinsey & Company, (2019), "Automation in Manufacturing: Creating More Value" (<https://www.mckinsey.com>)
- Miller, M. (2016). *Financial Management: Theory and Practice*, Cengage Learning.
- Modigan, F. (2019). *Principles of Corporate Finance*. McGraw-Hill Education, ISBN: 978-1259921479.
- OECD, (2020), "Enhancing Industrial Capacity: Investment in Manufacturing" (<https://www.oecd.org>)
- Porter, M., (1990) *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*, Free Press.
- Rappaport, A. (1986). *Creating Shareholder Value: A Guide for Managers and Investors*. Free Press.
- Report (2023) World Bank Group. *Global Financial Development Report*, IMF. *World Economic Outlook*, MSCI Global Index Statistics // <https://www.msci.com>
- ScienceDirect, (2020), "Impact of New Materials on Manufacturing and Product Quality" (<https://www.sciencedirect.com>)
- Sharpe, F. W.: (1964). *Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk*, *Journal of Finance*.
- The Quality Assurance Institute, (2018), "Quality Control in Manufacturing" (<https://www.qa-institute.com>)
- Кравченко, И. В. (2019). *Корпоративноэ управление и финансовый менеджмент*. Москва: Финансы и статистика.